



ARAB TILI O'ZLASHMA DIPLOMATIK TERMINLARINING SEMANTIK MOSLASHUVI

Shuhrat Mirziyotov,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1781>

MAQOLA HAQIDA/O' STAT'YE	ANNOTATSIIYA/ АННОТАЦИЯ
Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil Jurnal soni: 19-A Maqola raqami: 20 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА semantik moslashuv, o'zlashma termin, arab diplomatik terminologiyasi, ma'no torayishi, ma'no kengayishi, diplomatik diskurs, OAV tili, komponentli tahlil, izofa munosabati	Ushbu maqolada o'zlashma terminlarning qabul qiluvchi tilga kirgandan keyin yangi ijtimoiy, madaniy va kasbiy-kommunikativ ehtiyojlarga mos ravishda semantik moslashuvi jarayonlari tahlil qilingan. Tadqiqot zamonaviy arab diplomatik terminologiyasi va OAV matnlari misolida olib borilib, o'zlashma birliklarning semantik transformatsiyasi asosan ma'no torayishi va ma'no kengayishi yo'nalishlarida kechishi aniqlangan. Xususan, <i>fitu</i> (veto), <i>ajinda</i> (kun tartibi), <i>lubi</i> (lobbi) va <i>diblūmāsiyya</i> (diplomatiya) kabi terminlarning kontekstual o'zgarishlari, shuningdek, arab tilidagi izofa va sifat munosabatidagi birikmalarning terminologik-semantik vazifasi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotda semantik, komponentli, qiyosiy-kontekstual va distributiv tahlil usullaridan foydalanilib, o'zlashma terminlarning manba tildagi dastlabki ma'nolari hamda arab diplomatik diskursida kasb etgan yangi funksional-semantik xususiyatlari qiyosiy o'rganildi. Shuningdek, izofa va sifat munosabatiga asoslangan terminologik birikmalarning o'zlashma birliklar ma'nosini sohaviy jihatdan cheklash, aniqlashtirish va barqaror diplomatik termin sifatida shakllantirishdagi o'rni aniqlandi. Tadqiqot natijalari arab tilidagi o'zlashma diplomatik terminlarning semantik moslashuvi nafaqat ma'no torayishi va kengayishi, balki kontekstual qayta talqin, semantik komponentlarning faollashuvi hamda diskursiv terminlashuv jarayonlari orqali ham amalga oshirishini ko'rsatadi.

ABOUT THE PAPER	ANNOTATION
Accepted: 17 August 2026 Approved: 19 August 2026 Volume: 19-A Paper number: 20 KEYWORDS semantic adaptation, borrowed term, Arabic diplomatic terminology, semantic narrowing, semantic broadening, diplomatic discourse, media language, componential analysis, idāfa relation	This article examines the processes of semantic adaptation undergone by borrowed terms after their integration into the recipient language in accordance with new social, cultural, and professional-communicative needs. The study is based on materials from contemporary Arabic diplomatic terminology and mass media texts and reveals that the semantic transformation of borrowed lexical units primarily occurs through the processes of semantic narrowing and semantic broadening. In particular, the contextual transformations of such terms as <i>fitu</i> (veto), <i>ajinda</i> (agenda), <i>lubi</i> (lobby), and <i>diblūmāsiyya</i> (diplomacy) are analyzed, while the terminological and semantic functions of constructions based on <i>idāfa</i> and attributive relations in Arabic are theoretically substantiated. The research employs semantic, componential, comparative-contextual, and distributional analysis to comparatively investigate the original meanings of borrowed terms in their source languages and the new functional-semantic properties they acquire within Arabic diplomatic discourse. Furthermore, the role of terminological constructions based on <i>idāfa</i> and attributive relations in restricting, specifying, and stabilizing the meanings of borrowed lexical units as established diplomatic terms is identified. The findings demonstrate that the semantic adaptation of borrowed diplomatic terms in Arabic is realized not only through semantic narrowing and broadening but also through contextual reinterpretation, the activation of particular semantic components, and processes of discursive terminologization.

Kirish

O'zlashma terminning qabul qiluvchi tilga kirgandan keyin yangi tilning ijtimoiy, madaniy va kasbiy-kommunikativ ehtiyojlarga mos ravishda ma'no jihatidan qayta talqin qilinishi oqibatida maxsus so'z yoki termin semantik moslashuv bosqichini bosib o'tadi. Bunda termin manba tildagi umumiy yoki keng ma'nosini saqlab qolishi ham, toraytirishi ham, kengaytirishi ham yoki yangi sohaviy mazmun kasb etishi ham mumkin. Umumiy tilshunoslikda bunday jarayon semantik o'zgarib, o'zlashish deb yuritiladi. Semantik o'zgarish so'z ma'nosining vaqt o'tishi bilan o'zgarishi, unga yangi ma'no qo'shilishi yoki ayrim ma'nolarning yo'qolishi bilan bog'liq hodisa sifatida izohlanadi.

O'zlashma terminlar semantik moslashuvga ayniqsa moyil bo'ladi, chunki ular yangi til muhitiga kirganda asl tildagi barcha ma'no qatlamlarini emas, balki qabul qiluvchi jamiyat uchun zarur bo'lgan ma'no jihatlarini faol saqlab qoladi. Ilmiy adabiyotlarda semantik moslashuv, odatda, ma'no torayishi, ma'no kengayishi, ma'no siljishi, shuningdek, metaforik kengayish kabi jarayonlar orqali tushuntiriladi.

Arab tilidagi o'zlashma terminlar bo'yicha tadqiqotlarda ham bu holat kuzatiladi. Masalan, adabiyotlarda inglizcha o'zlashmalar arab OAV tilida semantik jihatdan o'zgarishi, ularning ma'nosi media va ijtimoiy-siyosiy kontekstga moslashishi ko'rsatilgan. Bu xulosa arab diplomatik terminologiyasidagi *فيتو* (*fitu*) أجندة (*ajinda*)، بروتوكول (*brütüköl*)، دبلوماسية (*diblūmāsiyya*)، قضية (*qunshūliyya*)، استراتيجية (*istrātijīyya*)، لوبي (*lūbi*) kabi terminlarning ham sohaviy kontekstda maxsus ma'no kasb etishini asoslashga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, arab diplomatik terminologiyasida semantik moslashuv uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi. Endi bu bosqichlarni tahlil qilib chiqamiz.

Adabiyotlar tahlili

O'zlashma birliklarning qabul qiluvchi til tizimiga kirib, fonetik, grammatik va semantik jihatdan moslashuvi zamonaviy tilshunoslikning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, terminologik qatlamdagi o'zlashmalarni o'rganishda ularning faqat kelib chiqishi yoki fonetik shakli emas, balki yangi til muhitida qanday ma'no kasb etishi, qaysi semantik belgilarini saqlab qolishi va qanday yangi funksional xususiyatlarga ega bo'lishi masalasi alohida ilmiy ahamiyatga ega. Arab tili diplomatik terminologiyasi ham xalqaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning jadallashuvi natijasida muntazam boyib borayotgan sohalardan bo'lib, undagi o'zlashma birliklarning semantik transformatsiyasini tadqiq etish mavjud nazariy qarashlarni qiyosiy tahlil qilishni talab etadi.

Leksik semantika va semantik o'zgarish nazariyasiga oid fundamental tadqiqotlar orasida D. Geeraertsning ishlari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Olim so'z ma'nosini qat'iy va o'zgarimas hodisa sifatida emas, balki tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy tajriba hamda nutqiy qo'llanish jarayonida rivojlanib boruvchi murakkab kognitiv tizim sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, leksik birliklarning ma'no doirasi til taraqqiyoti davomida kengayishi, torayishi, qayta tashkil topishi yoki yangi kontekstual mazmun bilan boyishi mumkin [2, 180–185]. Bu qarash o'zlashma diplomatik terminlarning arab tilidagi semantik holatini o'rganishda ayniqsa muhimdir. Chunki chet tilidan kirib kelgan birlik yangi til tizimida manba tilidagi barcha ma'nolarini to'liq saqlab

qolmasdan, qabul qiluvchi tilning kommunikativ ehtiyojlariga mos keladigan ayrim semantik komponentlarni faollashtiradi.

Semantik o'zgarishning tarixiy va pragmatik mexanizmlarini o'rganishda E. C. Traugott va R. B. Dasher tadqiqotlari ham muhim o'rin tutadi. Mualliflar semantik o'zgarishni til birliklarining oddiy ichki taraqqiyoti bilangina bog'lamay, nutqiy vaziyat, kommunikativ ehtiyoj va pragmatik omillarning muntazam ta'siri natijasi sifatida baholaydilar [3, 1–15]. Ularning tadqiqotida so'z ma'nosining yangi kommunikativ kontekstlarda qayta talqin qilinishi, dastlab nutqiy xususiyat sifatida yuzaga kelgan semantik o'zgarishning keyinchalik til tizimida barqarorlashishi alohida ta'kidlanadi [3, 35–41]. Mazkur nazariy yondashuv arab diplomatik diskursidagi o'zlashma terminlarning semantik moslashuvini tushuntirishda samarali metodologik imkoniyat yaratadi.

Chunki diplomatik terminlarning aksariyat qismi dastlab xalqaro siyosiy va huquqiy munosabatlari orqali nutqqa kirib keladi. Keyinchalik ular OAV, rasmiy hujjatlar, xalqaro muzokaralar va siyosiy sharhlar tilida keng qo'llanishi natijasida muayyan semantik xususiyatlarini mustahkamlaydi. Shu jihatdan qaralganda, semantik moslashuv birdaniga yuz beradigan hodisa emas, balki o'zlashma birlikning yangi nutqiy muhitga kirishi, kontekstual ma'nolarning shakllanishi va ularning barqaror terminologik mazmun kasb etishi bilan bog'liq bosqichma-bosqich jarayondir.

Arab tilidagi inglizcha va boshqa Yevropa tillaridan kirib kelgan o'zlashma birliklarning semantik xususiyatlarini maxsus tadqiq etgan A. A. H. Al-Athwaryning ishlari mazkur masalaning bevosita arab tilidagi ilmiy tadqiqi sifatida alohida ahamiyatga ega. Olim Arab ko'rfazi davlatlari gazetalarida uchraydigan inglizcha o'zlashmalarni tahlil qilib, bunday birliklar arab tilida faqat shakllan emas, balki semantik va funksional jihatdan ham moslashishini ko'rsatadi [1, 112–115]. Tadqiqotda o'zlashma birliklarning ommaviy axborot vositalari tilida yangi kontekstual imkoniyatlarga ega bo'lishi va ayrim hollarda manba tilidagi dastlabki ma'no chegaralaridan farqli semantik mazmun kasb etishi qayd etiladi.

Al-Athwaryning tadqiqoti o'zlashma birliklarning semantik moslashuvi ijtimoiy-kommunikativ muhit bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir. Xususan, arab OAV tilida faol qo'llanadigan xalqaro siyosiy va diplomatik terminlar ko'pincha umumiy lug'aviy birlik sifatida emas, balki muayyan siyosiy voqelikni ifodalovchi konseptual birlik sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat diplomatik terminologiyada semantik torayish jarayonining faol kechishini ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda semantik moslashuv jarayonini o'rganishda komponentli tahlil usuliga ham katta e'tibor qaratiladi. Ushbu metod so'z yoki termin ma'nosini tashkil etuvchi minimal semantik birliklarni aniqlash imkonini beradi. O'zlashma termin yangi til muhitiga kirganda uning barcha semalari bir xil darajada saqlanmaydi. Ayrim semantik belgilar yo'qoladi, ayrimlari esa qabul qiluvchi tilning kommunikativ ehtiyojlari ta'sirida kuchayadi. Shu sababli o'zlashma terminning semantik moslashuvi uning umumiy ma'nosining oddiy o'zgarishi emas, balki ichki semantik tuzilishining qayta tashkil topishi sifatida ham baholanishi mumkin.

Termin dastlab muayyan makonni, ya'ni "vestibul" yoki "kutish zali"ni anglatgan bo'lsa, zamonaviy siyosiy va diplomatik diskursda "manfaatlar guruhi", "siyosiy qarorlariga ta'sir ko'rsatuvchi kuch" ma'nolarini ifodalash uchun qo'llanadi. Bunday semantik transformatsiya terminning dastlabki predmetlik semasidan uzoqlashib, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni ifodalovchi abstrakt konseptual mazmunga ega bo'lishini ko'rsatadi. Semantik o'zgarishning bunday turi Geeraerts tomonidan qayd etilgan ma'no kategoriyalarining kontekst va qo'llanish tajribasi asosida qayta shakllanishi haqidagi nazariy qarashlar bilan hamohangdir [2, 185–190].

Tadqiqotlarda o'zlashma birliklarning terminlashuvi va semantik maxsuslashuvi ham muhim masala sifatida ko'riladi. Terminlashuv jarayonida dastlab umumiste'mol leksikasiga mansub bo'lgan birlik muayyan fan, kasb yoki ijtimoiy faoliyat sohasida maxsus ma'no kasb etadi. Diplomatik diskursda bunday jarayon, ayniqsa, ikki va uch komponentli terminologik birliklarning orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Arab tiliga xos izofa va sifat munosabatlari asosida hosil bo'lgan birikmalar o'zlashma birlikning semantik maydonini chegaralash va uni muayyan diplomatik-huquqiy tushunchaga bog'lash imkonini beradi.

Traugott va Dasher semantik o'zgarishlarda pragmatik xulosalarning vaqt o'tishi bilan konvensional ma'noga aylanishini alohida qayd etadilar [3, 40–46]. Ushbu qarash diplomatik terminlarning arab tilida barqarorlashuv jarayonini tushuntirishga yordam beradi. Dastlab muayyan xalqaro voqea yoki siyosiy vaziyat bilan bog'liq holda qo'llangan o'zlashma birlik keyinchalik muntazam nutqiy takrorlanish natijasida aniq va barqaror terminologik ma'no kasb etadi. Demak, diplomatik diskurs o'zlashma terminlarning faqat qo'llanish muhiti emas, balki ularning yangi

semantik xususiyatlarini shakllantiruvchi asosiy kommunikativ makon sifatida ham namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zlashma birliklarning semantik moslashuvi masalasi umumiy leksik semantika doirasida yetarlicha ishlab chiqilgan bo'lsa-da, mazkur nazariy qarashlarning aynan arab diplomatik terminologiyasi materiallari asosida tizimli tadqiq etilishi hali ham dolzarb yo'nalishlardan biridir. Geeraerts [2, 180–190] semantik kategoriyalarning dinamik va kontekstga bog'liq tabiati haqidagi nazariy asoslarni ishlab chiqqan bo'lsa, Traugott va Dasher [3, 1–15; 35–46] semantik o'zgarishning pragmatik va diskursiv mexanizmlarini yoritadilar. Al-Athwary esa arab OAV tilidagi inglizcha o'zlashmalar misolida mazkur nazariy jarayonlarning amaliy ko'rinishini ochib beradi [1, 110–121].

Biroq mavjud tadqiqotlarning asosiy qismi o'zlashmalarining umumiy leksik-semantik xususiyatlari yoki OAV tilidagi qo'llanishiga qaratilgan. Arab diplomatik terminologiyasida o'zlashma birliklarning ma'no torayishi, ma'no kengayishi, institutsional semantik maxsuslashuvi, shuningdek, izofa va sifat munosabatlari orqali semantik cheklanishi masalalarini yagona tizim asosida o'rganish alohida tadqiqot yo'nalishini talab qiladi. Aynan shu jihat mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy manbalar tahlili o'zlashma diplomatik terminlarning semantik moslashuvi murakkab va ko'p bosqichli jarayon ekanini ko'rsatadi. Bu jarayonda, bir tomondan, termin manba tilidagi dastlabki semantik xususiyatlarini qisman saqlab qoladi, ikkinchi tomondan esa qabul qiluvchi tilning ijtimoiy, siyosiy va kasbiy-kommunikativ ehtiyojlari ta'sirida yangi mazmun kasb etadi. Arab diplomatik diskursida ushbu jarayon ma'no torayishi va kengayishi, semantik komponentlarning qayta taqsimlanishi hamda sintaktik birikmalar vositasida terminologik maxsuslashuv shaklida namoyon bo'ladi. Shu sababli mazkur tadqiqotda mavjud nazariy qarashlar arab tilidagi zamonaviy diplomatik o'zlashmalar misolida qiyosiy-semantik va komponentli tahlil metodlari asosida davom ettiriladi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda o'zlashma diplomatik terminlarning arab tili muhitiga semantik moslashuvi, ularning funksional-semantik xususiyatlari hamda semantik transformatsiya dinamikasini aniqlash maqsadida zamonaviy tilshunoslikda qo'llaniladigan o'zaro uzviy bog'liq tadqiqot usullari majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini semantik, komponentli, qiyosiy-kontekstual va distributiv tahlil usullari tashkil etdi. Mazkur metodlar o'zlashma terminlarning manba tilidagi dastlabki ma'nosi bilan arab tilidagi yangi semantik va funksional xususiyatlarini qiyosiy o'rganish, ularning diplomatik diskurs doirasida qanday mazmun kasb etishini aniqlash imkonini berdi.

Avvalo, semantik tahlil usuli yordamida ingliz va boshqa Yevropa tillaridan arab tiliga o'zlashgan diplomatik leksik birliklarning ichki ma'no tuzilishi, semantik qatlamlari hamda yangi lingvistik muhitdagi mazmuniy o'zgarishlari o'rganildi. Bunda o'zlashma birliklarning dastlabki lug'aviy ma'nosi, arab tiliga qabul qilingandan keyingi semantik holati va zamonaviy diplomatik nutqda kasb etgan yangi ma'nolari o'zaro qiyoslandi. Natijada ayrim terminlarda ma'no torayishi, ayrimlarida esa ma'no kengayishi yoki yangi kontekstual ma'no shakllanishi kabi jarayonlar aniqlandi. Xususan, umumiste'mol doirasidagi yoki keng semantik maydonga ega bo'lgan ayrim birliklarning diplomatik nutqda muayyan xalqaro-huquqiy, siyosiy yoki institutsional mazmun bilan chegaralanishi tadqiqotning asosiy kuzatish obyektlaridan biri sifatida belgilandi.

Tadqiqotda sohaviy-kontekstual cheklash usulidan ham keng foydalanildi. Ushbu metod orqali o'zlashma so'zlarning diplomatik, siyosiy, huquqiy va xalqaro munosabatlari doirasidagi qo'llanish xususiyatlari tahlil qilindi. Bunda keng ma'noli leksik birlikning muayyan kommunikativ muhitda tor sohaviy mazmun, ya'ni institutsional ma'no kasb etish mexanizmi yoritildi. Termin ma'nosining bunday chegaralanishida nutqiy vaziyat, qo'llanish sohasi, birikma tarkibidagi boshqa komponentlar hamda diplomatik diskursning o'ziga xos kommunikativ talablari muhim omil sifatida qaraldi. Shu asosda o'zlashma birliklarning oddiy leksik birlikdan barqaror diplomatik termin darajasiga o'tish jarayoni kuzatildi.

Komponentli tahlil usuli terminlarning ichki semantik tuzilishini chuqurroq aniqlash maqsadida qo'llanildi. Ushbu usul yordamida o'zlashma diplomatik terminlar semantik jihatdan o'zaro bog'langan birliklar tizimi sifatida qaralib, ularning ma'no tarkibini tashkil etuvchi eng kichik mazmuniy unsurlar semalar tahlil qilindi. Natijada arab tili muhitiga moslashish jarayonida qaysi semantik belgilar saqlanib qolgani, qaysilarining faollashgani yoki aksincha, ayrim semalarning kommunikativ ahamiyatini yo'qotgani aniqlandi. Jumladan, umumiy "reja" yoki "kun tartibi" ma'nosini anglatuvchi semantik belgilarning diplomatik diskursda "muzokaralarning ustuvor masalalari", "siyosiy

yo'nalishlar" kabi maxsus semalar bilan to'ldirilishi terminlarning mazmuniy transformatsiyasini ko'rsatdi.

Qiyosiy-kontekstual va distributiv tahlil asosida esa o'zlashma birliklarning manba tildagi, ya'ni etimologik jihatdan dastlabki ma'nolari ularning zamonaviy arab tilidagi real qo'llanishi bilan qiyoslandi. Bunda terminlarning arab ommaviy axborot vositalari matnlarida, diplomatik diskursda hamda rasmiy hujjatlarda qanday sintagmatik va paradigmatic munosabatlarga kirishishi kuzatildi. Terminlarning qaysi birliklar bilan birikishi, qanday kontekstlarda muntazam qo'llanishi va mazkur qo'llanish natijasida qanday barqaror semantik xususiyatlar kasb etishi distributiv tahlil orqali belgilandi. Bu usul o'zlashma terminlarning faqat lug'aviy ma'nosini emas, balki ularning real nutqiy muhitdagi funksional imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqotning empirik bazasini shakllantirish va tahlil jarayonini yanada chuqurlashtirish maqsadida arab tiliga xos sintaktik-semantik birikmalarning tuzilishi ham alohida o'rganildi. Xususan, izofa munosabati va sifat munosabatiga asoslangan ikki hamda uch tarkibli terminologik birikmalarning hosil bo'lish mexanizmlari tizimli tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqot davomida determinatsiya, ya'ni terminlashuv jarayoni ham kuzatildi. Bunda birikma tarkibidagi tobe komponentlar aniqlovchi va sifatlarining yetakchi o'zlashma birlik semantikasiga ta'siri alohida tahlil qilindi. Aniqlovchi komponentlarning asosiy so'z ma'nosini cheklashi, uni umumiy leksik ma'nodan muayyan sohaviy mazmunga yo'naltirishi hamda natijada barqaror terminologik birlikni shakllantirishi tilning real qo'llanishi, ya'ni diskursiv amaliyot asosida dalillandi. Shu tariqa, izofa va sifat munosabatiga asoslangan sintaktik birikmalar nafaqat grammatik qurilma, balki o'zlashma birliklarning semantik moslashuvi va

terminologik maxsuslashuvini ta'minlovchi muhim vosita sifatida baholandi.

Tadqiqotda qo'llanilgan semantik, komponentli, sohaviy-kontekstual, qiyosiy va distributiv tahlil usullarining o'zaro uyg'unligi o'zlashma diplomatik terminlarning arab tili muhitidagi semantik transformatsiyasini kompleks tarzda yoritish imkonini berdi. Mazkur metodologik yondashuv orqali terminlarning dastlabki ma'no tarkibi, yangi lingvistik va kommunikativ muhitda yuzaga kelgan semantik o'zgarishlar, ma'no torayishi va kengayishi, shuningdek, sintaktik birikmalar vositasida yuz beradigan terminologik maxsuslashuv jarayonlari tizimli ravishda aniqlandi.

Natijalar

Tahillar natijasida aniqlanishicha, arab diplomatik terminologiyasida semantik moslashuv jarayoni asosan Ma'no torayishi va Ma'no kengayishi yo'nalishlarida kechadi:

A) Ma'no torayishi bo'yicha natijalar

Ma'no torayishi – bu so'z yoki terminning umumiy, keng ma'nodan muayyan soha doirasidagi tor, maxsus ma'noga o'tishidir. O'zlashma terminlarda chet tilidan kirgan so'z arab tilda barcha eski ma'nolari bilan emas, balki ko'pincha ma'lum bir kommunikativ ehtiyojga mos keladigan ma'nosi bilan faol ishlay boshlaydi.

• **أجندة (ajinda)** termini المفوضات أجندة (ajindat al-mufawwadāt) birikmasida "muzokaralar kun tartibi" maxsus ma'nosini ifodalaydi.

• **فيتو (fitu)** esa الفيتو حق (haqq al-fitu) birikmasida xalqaro-huquqiy vakolat ma'nosini ifodalaydi.

O'zlashma terminlarning ma'no torayishi jarayoni quyidagi jadvalda umumlashtirildi:

Termin	Umumiy ma'no	Diplomatik tor ma'no	OAVdagi shakl
الفيتو fitu	rad etish	BMT Xavfsizlik Kengashidagi veto huquqi	حق الفيتو / حق النقض (الفيتو)
أجندة ajinda	reja, kun tartibi	muzokara mavzulari va siyosiy ustuvor masalalar	أجندة المفاوضات
البروتوكول brütükül	tartib-qoidalar majmui	diplomatik marosim va rasmiy muomala qoidalari	البروتوكول الدبلوماسي

B) Ma'no kengayishi bo'yicha natijalar

Ma'no kengayishi - terminning dastlabki tor yoki aniq ma'nodan chiqib, diplomatik nutqda kengroq siyosiy, strategik yoki xalqaro munosabatlarga oid mazmun kasb etishidir.

• **لوبي (lubi):** Dastlab 'vestibul', 'kirish zali' ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, diplomatik kontekstda 'manfaatlar guruhi', 'bosim guruhi', 'muayyan siyosiy qarorlarga ta'sir qiluvchi kuch' ma'nosini olgan (Masalan: اللوبي الدبلوماسي al-lubi ad-diblūmāsi – 'diplomatik lobbi', اللوبي الصهيوني al-lubi aş-shahyūni – 'sionistik lobbi').

• **دبلوماسية (diblūmāsiya):** Dastlab davlatlararo rasmiy aloqa san'ati yoki amaliyotini bildirgan bo'lsa, zamonaviy arab nutqida yangi birikmalar tarkibida kengaygan:

– **دبلوماسية اقتصادية (diblūmāsiya iqtisādiyya)** – 'iqtisodiy diplomatiya'

– **دبلوماسية ثقافية (diblūmāsiya thaqa'fiyya)** – 'madaniy diplomatiya'

– **دبلوماسية رقمية (diblūmāsiya raqamiyya)** – 'raqamli diplomatiya'

– **دبلوماسية إنسانية (diblūmāsiya insāniyya)** – 'insonparvarlik diplomatiyasi'

– **دبلوماسية شعبية (diblūmāsiya sha'biyya)** – 'xalq diplomatiyasi'.

Muhokama

Arab diplomatik diskursida o'zlashma birliklarning kontekstual qo'llanilishi ularning semantik jihatdan to'liq moslashganini ko'rsatadi.

Ma'no torayishi kontekstida:

فيتو (fitu) terminining oddiy "rad etish" emas, balki BMT Xavfsizlik Kengashida doimiy a'zo davlatlarga berilgan qarorni to'xtatish vakolati ma'nosida ishlashini quyidagi OAV misoli ham tasdiqlaydi:

الدولي الأمن مجلس في (الفيتو) النقض حق المتحدة الولايات استخدمت (istakhdamat al-wilāyāt al-muttaḥida haqq an-naqd (al-fitu) fi majlis al-amm ad-duwalī...)

"AQSh BMT Xavfsizlik Kengashida veto huquqidan foydalandi..."

فيتو (fitu) umumiy "rad etish" ma'nosidan xalqaro huquqdagi maxsus "institutsional veto huquqi" ma'nosiga toraygan. Shu sababli, ilmiy ishda **حق الفيتو الدولي (haqq al-fitu ad-duwalī)** – "xalqaro veto huquqi"

birikmasidan ko'ra, الدولي الأمن مجلس في الفيتو حق (haqq al-fitu fi majlis al-amm ad-duwalī) yoki الدولي الأمن مجلس في (الفيتو) النقض حق (haqq an-naqd (al-fitu) fi majlis al-amm ad-duwalī) shakllarini ishlatish yaxshiroqdir. Buni Falastin rasmiy bayonotlaridagi quyidagi misol ham tasdiqlaydi:

الأمن مجلس في الفيتو حق مجدداً الأمريكية المتحدة الولايات استخدام، الفلسطينية الرئاسة (wa-adānat ar-ri'āsa al-filasṭīniyya istikhḍām al-wilāyāt al-muttaḥida al-amrīkiyya mujaddadan haqq al-fitu fi majlis al-amm ad-duwalī...)

"Falastin rahbariyati AQShning Xalqaro Xavfsizlik Kengashida yana veto huquqidan foydalanganini qoraladi..."

Xuddi shunday, **أجندة (ajinda)** terminining asl umumiy ma'nosi – "reja", "kun tartibi", "bajariladigan ishlar ro'yxati" bo'lsa, diplomatik tilda u oddiy kundalik reja emas, balki diplomatik muzokarada muhokama qilinadigan siyosiy masalalar, tomonlar pozitsiyasi va kelishuv yo'nalishlarini bildiradi:

المرتبة المفاوضات جولة أجندة للجزيرة لبناني رسمي مصدر كشف (kashafa maşdar rasmi lubnānī li-l-jazīra ajindat jawlat al-mufawwadāt al-murtakaba...)

"Livan rasmiy manbasi Al Jazeera'ga kutilyotgan muzokaralar raundi kun tartibini oshkor qildi..."

Ma'no torayishining yana bir misoli sifatida **البعثة الدبلوماسية (ḥaṣānat al-bi'tha ad-diblūmāsiyya)** – 'diplomatik mission daxlsizligi' birikmasini keltirish mumkin. Bu yerda **حصانة (ḥaṣānat)** termini umumiy himoya yoki "shaxsiy himoya" ma'nosidan torayib, "diplomatik vakolatxona", "missiya yoki delegatsiyaga berilgan xalqaro huquqiy maqom"ni anglatadi:

...المعتبة الدولة تجاه الدبلوماسية الإجراءات البعثة دولة اتخاذ (min an-natā'ij allatī qad tatarattabu 'alā intihāk ḥaṣānat al-bi'tha ad-diblūmāsiyya ittikhḍāh dawlat al-bi'tha al-ijrā'āt ad-diblūmāsiyya tujāha ad-dawla al-mu'tadiya...)

"Diplomatik missiya daxlsizligi buzilishi natijasida missiya davlati tajovuzkor davlatga nisbatan diplomatik choralar ko'rishi mumkin..."

Bu jarayonda **البعثة الدبلوماسية (al-bi'tha ad-diblūmāsiyya)** komponenti asosiy so'zning ma'nosini semantik jihatdan cheklaydi va uni diplomatik

terminga aylantiradi. Demak, birikma tarkibidagi izofa va sifat munosabati nafaqat grammatik, balki terminologik-semantik vazifa ham bajaradi.

Ma'no kengayishi kontekstida:

Umumiy semantika nazariyasida ma'no kengayishi so'z ma'nosining tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi qo'llanish sohalari o'tishi, til qo'llanishi jarayonida yangi ma'nolarning shakllanishi bilan bog'lanadi [208]. O'zlashma terminlar yangi til muhitida dastlabki ma'nosini saqlab qolish bilan birga, yangi sohavij ehtiyojlarga mos ravishda kengroq ma'no doirasiga ega bo'ladi.

Masalan, لوبي (*lūbī*) terminida ma'no makon bildiruvchi tor tushunchadan siyosiy ta'sir mexanizmini bildiruvchi kengroq tushunchaga o'tgan:

الأمن مجلس جلسة على للتأثير واشنطن في "الدبلوماسية اللوبي" تُسَخَّرُ الجرائر (*al-jazā'ir tusakhkhiru "al-lūbī ad-diblūmāsi" fī wāshintun li-t-ta'thīr 'alā jalsat majlis al-amm.*)

"Jazoir Washington Xavfsizlik Kengashi majlisiga ta'sir o'tkazish uchun "diplomatik lobbi"ni ishga solmoqda".

Xuddi shunday, دبلوماسية (*diblūmāsiyya*) termini an'anaviy elchilik va davlatlararo rasmiy aloqalar doirasidan chiqib, iqtisod, madaniyat, texnologiya va gumanitar faoliyat sohalari kengaygan. BAA axborot agentligida sarlavha sifatida kelgan quyidagi misol iqtisodiy va savdo yo'nalishidagi kengayishni isbotlaydi:

والتجارية الاقتصادية الدبلوماسية مستقبل: الأميري سارة (*Sāra al-Amīrī: mustaqbal ad-diblūmāsiyya al-iqtisādiyya wa-t-tijāriyya.*)

"Sara al-Amiri: iqtisodiy va savdo diplomatiyasining kelajagi."

(Manbada yana: *tartaqī ad-diblūmāsiyya al-iqtisādiyya al-imārātiyya...* "BAA iqtisodiy diplomatiyasi yuksalmoqda..." shakli ham ishlatilgan).

Xalq diplomatiyasiga oid misolda esa termin umumiy ijtimoiy ta'sir vositasi sifatida namoyon bo'ladi:

All the same. (*ad-diblūmāsiyya ash-sha'biyya asās binā' al-quwwa an-nā'ima li-d-dawl*)

"Xalq diplomatiyasi davlatlarning yumshoq kuchini shakllantirish asosi hisoblanadi."

Bunda termin avval muayyan predmet yoki tor soha bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, keyinchalik boshqa ijtimoiy-siyosiy kontekstlarda ham ishlatilib, semantik maydoni kengayadi, o'zlashma terminlarning diplomatik diskursda yangi siyosiy-strategik mazmunlar bilan boyishini ta'minlaydi.

Ikki va uch tarkibli birikma terminlar o'zlashma diplomatik birliklarning semantik moslashuvini aniq ko'rsatadi. Ular arab tilida yangi

ma'no maydoniga kiradi, diplomatik nutqda maxsuslashadi va rasmiy-uslubiy termin sifatida barqarorlashadi.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda arab diplomatik terminologiyasidagi o'zlashma birliklarning semantik moslashuv xususiyatlari tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Semantik moslashuv qonuniyati: Chet tilidan kirib kelgan har qanday maxsus birlik qabul qiluvchi til muhitida ijtimoiy, madaniy va kasbiy-kommunikativ ehtiyojlarga mos ravishda qayta talqin qilinadi. Bu jarayonda o'zlashma so'z asl tildagi barcha ma'no qatlamlarini emas, balki qabul qiluvchi jamiyat uchun dolzarb bo'lgan jihatlarni faol saqlab qoladi va maxsus leksik qatlam (termin) sifatida shakllanadi.

Ma'no torayishining institutsional tabiati: Arab diplomatik diskursida ma'no torayishi o'zlashma terminlarning umumiy tushunchalardan aniq xalqaro-huquqiy, institutsional va diplomatik mazmunga o'tishi bilan xarakterlanadi. Masalan, *fitū* (veto) va *ajinda* (kun tartibi) kabi terminlar an'anaviy kundalik nutqdagi ma'nolaridan ajralib, BMT Xavfsizlik Kengashidagi taqiqlovchi huquq yoki xalqaro muzokaralardagi siyosiy pozitsiyalar kabi tor va qat'iy tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi.

Ma'no kengayishining konseptual ko'lami: Zamonaviy globallashtirish va diplomatik nutqning boshqa sohalar bilan integratsiyalashuvi natijasida ayrim o'zlashma terminlarning semantik maydoni kengayib bormoqda. Masalan, *lūbī* (lobbi) va *diblūmāsiyya* (diplomatiya) terminlari dastlabki tor, predmetli yoki an'anaviy elchilik tushunchalari chegarasidan chiqib, yangi ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy kontekstlarda (iqtisodiy, madaniy, raqamli, xalq va insonparvarlik diplomatiyasi kabi) yangi konseptual ma'nolar bilan boyimoqda.

Sintaktik birikmalarning terminologik roli: Arab tilidagi izofa va sifat munosabatiga asoslangan ikki va uch tarkibli terminologik birikmalar (masalan, *ḥaṣānat al-bi'tha ad-diblūmāsiyya*) nafaqat grammatik, balki kuchli semantik-cheqlovchi vazifani bajaradi. Aynan mana shu birikmalarni hosil qiluvchi komponentlar tayanch o'zlashma so'zning ma'nosini diplomatik-huquqiy doirada barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, o'zlashma diplomatik terminlarning arab tili muhitidagi semantik transformatsiyasi tilning ichki imkoniyatlari hisobiga xalqaro siyosiy voqelikni va zamonaviy kommunikativ tendensiyalarni aniq aks ettirishga to'la qodir ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Al-Athwary A. A. H. The Semantics of English Borrowings in Arabic Media Language: The Case of Arab Gulf States Newspapers // *International Journal of Applied Linguistics and English Literature*. – 2016. – Vol. 5, № 4. – P. 110–121.
2. Geeraerts D. *Theories of Lexical Semantics*. – Oxford : Oxford University Press, 2010. – 341 p.
3. Traugott E. C., Dasher R. B. *Regularity in Semantic Change*. – Cambridge : Cambridge University Press, 2002. – 341 p.
4. Blank A. *Principles of Semantic Change // Historical Semantics and Cognition*. – Berlin ; New York : Mouton de Gruyter, 1999. – P. 61–90.
5. Campbell L. *Historical Linguistics: An Introduction*. – 3rd ed. – Edinburgh : Edinburgh University Press, 2013. – 512 p.
6. Haspelmath M., Tadmor U. (eds.). *Loanwords in the World's Languages: A Comparative Handbook*. – Berlin ; Boston : De Gruyter Mouton, 2009. – 1080 p.
7. Haugen E. The Analysis of Linguistic Borrowing // *Language*. – 1950. – Vol. 26, № 2. – P. 210–231.

8. Weinreich U. *Languages in Contact: Findings and Problems*. – The Hague ; Paris : Mouton, 1968. – 148 p.
9. Durkin P. *Borrowed Words: A History of Loanwords in English*. – Oxford : Oxford University Press, 2014. – 512 p.
10. Haugen E. *The Ecology of Language*. – Stanford : Stanford University Press, 1972. – 366 p.
11. Ullmann S. *Semantics: An Introduction to the Science of Meaning*. – Oxford : Basil Blackwell, 1962. – 278 p.
12. Lyons J. *Semantics*. Vol. 1–2. – Cambridge : Cambridge University Press, 1977. – 897 p.
13. Cruse D. A. *Lexical Semantics*. – Cambridge : Cambridge University Press, 1986. – 310 p.
14. Lipka L. *An Outline of English Lexicology: Lexical Structure, Word Semantics, and Word-Formation*. – Tübingen : Max Niemeyer Verlag, 1992. – 225 p.
15. Cabré M. T. *Terminology: Theory, Methods and Applications*. – Amsterdam, Philadelphia : John Benjamins Publishing Company, 1999. – 248 p.